O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 13 - oktabr 333-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona shaharidagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida

Viloyat hududidagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan samarali foydalanishni ta’minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes sub’ektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-martdagi PQ-4231sonli qarori va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 9-moddalariga muvofiq, shuningdek Farg‘ona shahar, Yoshlik MFY, Universitet ko‘chasi 48-uyda yashovchi tadbirokor A.Kasimovning 2022-yil 29-iyuldagi murojaatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona shahar, Yoshlik MFY, Universitet ko‘chasi 48-uyda yashovchi tadbirkor Zikiryoyevich Asadulloxon Kasimovning 2023-yil 10-oktabrdagi murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona ko‘chasi 40-uyda joylashgan Farg‘ona shahar hokimligi balansidagi bo‘sh turgan bino-inshootlarga (sobiq “Dugoba” mehmonxonasi va sport-zali) 4,5 mlrd.so‘m investitsiya kiritish va 25 tadan kam bo‘lmagan yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan Zikiryoyevich Asadulloxon Kasimovga doimiy muddatga egalik qilish va foydalanish huquqi bilan biriktirib berilsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, A.Kasimov obekt negizida investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida quyidagi investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

obektga kamida 4,5 mlrd.so‘m miqdorida investitsiya kiritish;

xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish;

kamida 25 ta yangi ish o‘rinlari yaratish.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari (Ergashev) Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov) bilan birgalikda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi yuzasidan monitoring yuritilishi ta’minlasin.

5. Davlat kadastri agentligini viloyat boshqarmasi (Mashrapov) Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov) bilan birgalikda ob’ektga biriktirib berilgan yer maydoniga aniqlik kiritsin hamda tegishli tartibda kadastr hujjatlari tayyorlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**